Sh.N.G'afforov	
MEHNAT RESURSLARINI BOSHQARISH VA UNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1439
Uzoqov Lutfillojon Fayzullojonovich	
DAVLAT TOMONIDAN IQTISODIY NAZORATNING BOZOR BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA GLOBAL AMALIYOT TAHLILI	1443
Rasulev Alisher Fayziyevich. Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TASHQI DAVLAT QARZINING VALYUTA TUZILMASI VA UNING QARZ BARQARORLIGIGA TA'SIRI TAHLILI	1446
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR ORQALI DAROMADLAR O'SISHINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1452
Eshbaeva Shahnoza Faxriddinovna	
ЭКОНОМИКА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПРАКТИКА.....	1457
Рустамов Зокир Тоирович	
EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA AKT NING ROLI: RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR MISOLIDA	1461
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li	
ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПОТОКАМИ И ИМПОРТОМ В УЗБЕКИСТАНА	1467
Рустамов Фозилжон	
ICHKI BOZORDA PARRANDA GO'SHTI MAHSULOTINING NARX BARQARORLIGI VA KELGUSI TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH.....	1475
Jumayev Olimjon Sadulloyevich	



TIBBIY XIZMAT INFRATUZILMASINING FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA JOYLASHUV XUSUSIYATLARI.....	1483
Xolmirzayeva Zulayxo Axmadjon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI BAHOLASH BO'YICHA METODOLOGIK YONDASHUVLAR ISHLAB CHIQISH.....	1488
Ibragimova Shaxlo Alimbayevna	
ENERGY TRANSITION DEBATE: ELECTRIC VEHICLES, OIL AND THE "GREEN" PARADOX.....	1492
Tokhirjonov Temurbek Alimardon ogli, Numonjon Malikov	
SANOATLASHUV NATIJASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AHOLI BANDLIGINING KAMAYISHI TAHLILI	1500
B.Beknazarov	
RESPUBLIKA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA RIVOJLANISHI.....	1505
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
"YASHIL IQTISODIYOT" VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1510
Qurbonov Shovqi Djurayevich	
THE ROLE OF ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE COURSE OF ACUTE RHEUMATIC FEVER IN CHILDREN.....	1516
Kuldashev Sardor Furqatovich	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHNING AXBOROT TIZIMI ASOSIDA MONITORING MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1520
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	1527
Sobirova Muxlisa	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	
BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI.....	1537
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	
ISLOMIY MOLIYA VA RAQAMLI BANK EKOTIZIMLARINING INTEGRATSIYASINING O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI	1544
Galatov Abbos Alibekovich	
AGROSERVIS XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	1551
Abilov Feruz Nematullayevich	
TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1554
Jabbarov Nodir Umirovich	
OLIY TA'LIM MALAKALARINI XALQARO TAN OLIISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI: BOLONYA JARAYONI VA YUNESKO GLOBAL KONVENSIYASI QIYOSIY TAHLILI	1559
Saidov Muxammad Ali Hakimovich, Iminoxunov Abduqahhor Abduvohidovich	
IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1563
G'ulomjan Matkarimov	
O'ZBEKISTONDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI.....	1568
Yulduz Urinbayeva	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR THE DIGITALIZATION OF TANGIBLE TECHNICAL ASSET INVENTORY IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1573
Izzatilla Pulatov Quدراتillayevich	
THE IMPACT OF NATIONAL ECONOMY COMPETITIVENESS ON ECONOMIC GROWTH	1581
Siddikov Askar Axrorovich, Turapov Siroj Mamadoli o'g'li	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AGRAR SEKTORNI MOLIYALASHTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH YO'NASHISHLARI	1585
Azizov Shuxrat Maxmutovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHGA QARATILGAN LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIK TAHLILI.....	1593
Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	1597
Madaminov Damir Abduraxmanovich	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА	1602
Султанова Л.Ш.	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaogu, Urkinbaev T. A.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В В2В- И В2С-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakbergenovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLON BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIYAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIYAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDI INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кощанова Сахибжамал Бахытбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: XORIY TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudayberganova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZIMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHİYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQRISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA'SIRLAR.....	1925
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH.....	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLIL.....	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI.....	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI.....	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	1963
Абдувалиева Зилола Абдуллаевна, Барно Нурмухамедова Исмаиловна	
EGILUVCHI TEMIR-BETON ELEMENTLARNING KUCHLANGANLIK-DEFORMATSIYALANUVCHANLIK HOLATIDA BETON DEFORMATSIYASINI HISOBGA OLISH.....	1970
Xolmirzaev Sattar Abdujabbarovich	
KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSIYASI STRATEGIYALARINING O'RNI.....	1976
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
SMART TEXNOLOGIYALARNING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHGA TA'SIRI.....	1983
Axmedova Nafisa Amiriddin qizi	
SOLIQ TIZIMIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINI SOLIQQA TORTISHDAGI MUOMMOLAR.....	1989
Jabborov Mashrab Ismoil o'g'li	
UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASSTER TIZIMINING AHAMIYATI.....	1993
Karimova Nilufar Sadriddin qizi	
SOLIQ ORGANLARINING SOLIQ TO'LOVCHILAR BILAN HAMKORLIGI.....	1997
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzaevich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ISHLAB CHIQRISH XARA JATLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI.....	2001
Normatova Gulmira Xayrullayevna	
ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN.....	2007
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Kongratbay Avezimbetovich Sharipov	



МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫЕ РЕСУРСЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ЭЛЕКТРОДНЫХ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ	2012
Садыков Жахонгир Насырджанович	
TOVAR-MODDIY RESURLAR HARAKATINI SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI VA UNI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI.....	2016
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Baxromov Bekzod Yusuf o'g'li	
ECONOMIC DIPLOMACY AND INVESTMENT RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF KOREA AND VIETNAM	2021
Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li, G'aniyev Zafarbek Ikrom o'g'li, Malikov Nu'monjon Kamalovich	
MINTAQQA IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASINI INTEGRATSIYALASHGAN SUBYEKTLAR MODELI	2028
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TEKSHIRUVLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	2034
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
UY BIZNESI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	2038
Ziyodullayev Navruzbek Botir o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2043
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	2050
Achilov Ilmurad Nematovich	
FERMER XO'JALIKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING AMALIY JIHATLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	2055
Nazarova Gulrux Umarjonovna	
KICHIK KORXONALARNING INNOVATSION FAOLLIIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGI: RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLAR MISOLIDA.....	2059
Otabek Azamatov Quyosh o'g'li	
КЛАСТЕР КАК МЕХАНИЗМ НАУЧНО-ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	2063
Раджабова Гавхархон Умаровна	
TIBBIY XIZMATLAR BOZORI SAMARADORLIGI VA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	2068
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA YER SOLIG'INING O'RNI VA AHAMIYATI	2073
Sh. J. Mamadjanov	
BO'LAJAK MARKETOLOGLARINING KASBIY KO'NIKMALARINI OSHIRISHNING XULQ-ATVOR VA PSIXOLOGIK JIHATLARI	2076
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
SANOAT SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	2082
Vaydullayev Ilyos Hamidulla o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI ASOSIDA MUAMMOLI KREDITLAR ULUSHINI (NPL) EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI	2087
Ishniyazov Baxrom Normamatovich, Xurramov Eldor	
FARMASEVTIKA KORXONALARIDA SOTISH XARAJATLARI BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2093
Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	2098
Djabbarova Zilola Saburovna	
MINTAQADA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	2104
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	



DUNYO MAMLAKATLARINING ASOSIY IQTISODIY O'SISH OMILLARI VA SO'NGGI YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI TAHLILI.....	2109
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	



DUNYO MAMLAKATLARINING ASOSIY IQTISODIY O'SISH OMILLARI VA SO'NGGI YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI TAHLILI

Rasulov Jamshid Shokir o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, PhD, assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada makroiqtisodiyotning asosiy muammolaridan biri bo'lgan iqtisodiy o'sishga dunyoning rivojlangan davlatlari qanday vositalar va mexanizmlar orqali erishayotganligi tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda kuzatilgan iqtisodiy o'sish jarayonlari, unga ta'sir etuvchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hamda ularning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi hissasi iqtisodiy-matematik modellar asosida o'rganiladi. Tadqiqot natijalari iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda investitsiyalar, mehnat unumdorligi, texnologik taraqqiyot va institutsional omillarning o'rni muhim ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy o'sish, makroiqtisodiyot, iqtisodiy-matematik modellar, rivojlangan davlatlar tajribasi, O'zbekiston iqtisodiyoti, investitsiyalar, mehnat unumdorligi.

Abstract. This article examines one of the key issues of macroeconomics-economic growth-by analyzing the tools and mechanisms used by developed countries to achieve sustainable growth. In addition, the study explores the main factors driving economic growth in the Republic of Uzbekistan in recent years, assessing the contribution of key macroeconomic indicators through the application of economic and mathematical models. The findings highlight the significant role of investment, labor productivity, technological progress, and institutional factors in fostering long-term economic growth.

Key words: economic growth, macroeconomics, economic and mathematical models, experience of developed countries, economy of Uzbekistan, investment, labor productivity.

Аннотация. В статье анализируются основные макроэкономические подходы к обеспечению экономического роста в развитых странах мира, а также механизмы и инструменты, применяемые для его достижения. Особое внимание уделяется анализу экономического роста Республики Узбекистан в последние годы, ключевых макроэкономических показателей и степени их влияния на динамику роста. Исследование основано на использовании экономико-математических моделей, позволяющих оценить вклад различных факторов в обеспечение устойчивого экономического развития.

Ключевые слова: экономический рост, макроэкономика, экономико-математические модели, опыт развитых стран, экономика Узбекистана, инвестиции, производительность труда.

KIRISH

Covid-19 pandemiyasi va ketma-ket yuz bergan global shoklardan so'ng to'rt yildan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa-da, butun dunyo, jumladan rivojlanayotgan davlatlar ham farovonlik sari olib boruvchi aniq va samarali rivojlanish yo'lini belgilash zaruratiga duch kelmoqda. Iqtisodiy o'sish sur'atlari hozircha asosiy rivojlanish maqsadlariga erishish uchun yetarli darajada barqaror bo'lmay qolmoqda. Xususan, global iqtisodiy o'sish sur'atlari 2026-yilgacha yillik o'rtacha 2,7 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda, bu esa Covid-19 pandemiyasidan oldingi o'n yillikdagi o'rtacha 3,1 foizlik ko'rsatkichdan past ekanligini anglatadi. Shu bilan birga, mazkur vaziyat iqtisodiy siyosatni yangicha yondashuvlar asosida takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Global miqyosda rivojlangan davlatlarning iqtisodiy o'sish tajribasini chuqur o'rganish, ularning muvaffaqiyatli mexanizmlarini rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitiga moslashtirish va ilmiy bilimlar tizimiga integratsiya qilish



iqtisodiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Dunyo davlatlari o'zlarining geografik va demografik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish tuzilmasini, daromad manbalarini hamda ularni yo'naltirish mexanizmlarini belgilab oladilar. Bunday yondashuv nafaqat muayyan mamlakatlar uchun samarali bo'lib qoladi, balki boshqa davlatlar uchun ham muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Mazkur jarayonlar iqtisodiyotdagi ortiqcha bosimlarni kamaytirishga xizmat qiladi va mashhur iqtisodchi olimlar – Adam Smithning “mutlaq ustunlik” hamda David Ricardoning “nisbiy ustunlik” nazariyalarida ta'kidlanganidek, mamlakatlarning o'zlari uchun eng qulay va samarali bo'lgan ishlab chiqarish yo'nalishlarini tanlashiga imkon yaratadi. Natijada, davlatlar o'z iqtisodiy salohiyatidan oqilona foydalanib, milliy boylikni shakllantirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkoniga ega bo'ladilar.

Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada rivojlangan davlatlarning iqtisodiy o'sish sur'atlari ularning asosiy boylik yaratuvchi tarmoqlari misolida tahlil qilinadi. Shu bilan birga, mazkur tajribalar O'zbekiston Respublikasi sharoitida ham ko'rib chiqilib, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va tarkibiy jihatdan mustahkamlash imkoniyatlari baholanadi.

MAVZUGA OID ABADIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy o'sish masalasi ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan turli metodologik yondashuvlar asosida keng tahlil qilingan. Jumladan, slovakiyalik olimlar Manuela Raisova va Julia Durcova Yevropa Ittifoqining ayrim mamlakatlarida iqtisodiy o'sishni talab va taklif omillari nuqtai nazaridan tahlil qilganlar. Ular Slovakiya, Polsha, Vengriya va Chexiya Respublikalarida iqtisodiy o'sishni jadallashtirgan hamda sekinlashtirgan asosiy omillarni statistik usullar asosida aniqlab, ushbu davlatlar iqtisodiy dinamikasining tarkibiy xususiyatlarini ochib berganlar.

Boshqa bir iqtisodchi James A. Yunker Xitoy va Hindiston iqtisodiyotlarining o'sishini aholining soni va demografik omillar bilan bog'liq holda tadqiq etgan. Uning tadqiqotlarida yirik aholi salohiyatining mehnat resurslari, ichki bozor kengligi va iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'siri asoslab berilgan bo'lib, bu yondashuv demografik omillarning makroiqtisodiy ahamiyatini yoritib beradi.

Lotin Amerikasi mamlakatlari misolida iqtisodiy o'sish va bandlik muammolarining “yashil iqtisodiy o'sish”ga ta'siri Bo Lan, Nan Li va Tong Liu tomonidan chuqur tahlil qilingan. Mazkur olimlar korrelyatsion-regression tahlil asosida iqtisodiy o'sish, ishsizlik darajasi va ekologik omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlab, olingan natijalarning ishonchlilikini GMM modeli hamda AR testlari yordamida tekshirganlar. Tadqiqot natijalari yashil iqtisodiy o'sishning bandlik va barqaror rivojlanish bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda esa iqtisodchi olimlar N. Mahmudov va H. Hakimov iqtisodiy o'sishning klassik, neoklassik hamda zamonaviy modellarini davlatlar miqyosida qiyosiy tahlil qilganlar. Ularning ishlarida mazkur modellarni O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida qo'llash tajribasi va istiqbollari turli makroiqtisodiy omillar kesimida atroflicha yoritib berilgan. Ushbu tadqiqotlar milliy iqtisodiyotda iqtisodiy o'sish modellari tanlovining ilmiy asoslanganligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ma'lumotlarni kengroq va tushunarliroq yoritish maqsadida taqqoslash, ilmiy abstraksiya, hamda maqola mavzusiga oid turli xorijiy va mahalliy adabiyotlar va maqolalar qiyoslangan holda va grafik-chizmalar yordamida tasvirlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Endi tahlilimizni dunyoning yetakchi davlatlarida iqtisodiy o'sishni ta'minlayotgan asosiy omillarni ko'rib chiqish orqali davom ettiramiz.

Amerika Qo'shma Shtatlari misolida qaralganda, 2024-yilda mamlakat iqtisodiyoti nominal hisobda 2,8 foizga o'sib, yalpi ichki mahsulot (YalM) hajmi 29,184 trillion AQSh dollariga yetdi. Taqqoslash uchun, 2023-yilda YalM 6,3 foizga oshib, 27,7 trillion AQSh dollarini (taxminan 2,28 trillion dollarlik nominal o'sish) tashkil etgan edi. AQSh iqtisodiyotida o'sishni ta'minlayotgan asosiy tarmoqlar tarkibida xizmatlar sohasi yetakchi o'rin tutib, YalMning qariyb 77 foizini shakllantiradi. Sanoat ulushi 18 foiz atrofida bo'lib, qishloq xo'jaligi esa taxminan 1 foizni tashkil etadi. Bu holat iqtisodiyotning yuqori darajada xizmatlar sektoriga tayanganligini ko'rsatadi.

Hindiston iqtisodiyotida esa 2024-yilda real YalM o'sishi 6,5 foizni tashkil etib, uning hajmi 3,91 trillion AQSh dollariga yetdi. Prognozlariga ko'ra, 2028-yilgacha mamlakat iqtisodiy o'sish sur'atlari 6 foizdan past bo'lmashligi kutilmoqda. Hindiston bugungi kunda dunyoning yetakchi o'nta iqtisodiyoti qatoriga kirib, 2024-yilda global YalM shakllanishidagi ulushi 8,25 foizni tashkil etdi. Shunga qaramay, Hindiston iqtisodiyoti hanzuz qishloq xo'jaligi sektoriga sezilarli darajada tayanib kelmoqda va bosqichma-bosqich xizmatlar sohasiga asoslangan iqtisodiy modelga o'tishni jadallashtirmoqda. 2024-yilda mamlakat YalMining 18,2 foizi qishloq xo'jaligi, 27,13



foizi sanoat va 55 foizi xizmatlar sohasi hissasiga to'g'ri keldi. Bu esa qishloq xo'jaligi hanuz aholi bandligi va daromadlarining muhim manbai bo'lib qolayotganini anglatadi.

Shu o'rinda, nominal YaIM hajmi bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda turuvchi Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyotiga to'xtalamiz. Xitoy o'z iqtisodiy modelida davlat nazorati ostidagi bozor mexanizmlarini xorijiy to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar bilan uyg'unlashtirgan holda barqaror rivojlanishga erishib kelmoqda. 2024-yilda Xitoy YaIM hajmi 18,7 trillion AQSh dollarini tashkil etib, 2023-yilga nisbatan qariyb 5 foizlik o'sishni qayd etdi. Sanoat ishlab chiqarishi va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ulushining yuqoriligi tufayli so'nggi o'n yil davomida mamlakat savdo balansida o'rtacha 878 milliard AQSh dollari miqdorida ijobiy saldo shakllangan. Bundan tashqari, 2024-yilda Xitoy YaIMni shakllantirishda yashil texnologiyalar va energiya samarador yechimlardan foydalanishni kengaytirishga muvaffaq bo'ldi, bu esa iqtisodiy o'sishning sifat jihatdan yangilanishiga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy holatini tahlil qiladigan bo'lsak, 2024-yil yakunlariga ko'ra, mamlakat YaIMi joriy narxlarda 121,4 milliard AQSh dollarini tashkil etdi va 2023-yilga nisbatan 6,5 foizga o'sdi. YaIM deflyatori 2022-yil narxlariga nisbatan 112,2 foiz darajasida shakllandi. Mazkur ko'rsatkichlar O'zbekiston iqtisodiyotida barqaror o'sish sur'atlari saqlanib qolayotganini hamda tarkibiy islohotlarning ijobiy samara berayotganini ko'rsatadi.

Yevropaning yetakchi iqtisodiyotlaridan biri bo'lgan Germaniyada esa 2024-yilda YaIM hajmi 4,6 trillion AQSh dollarini tashkil etgan holda, iqtisodiy o'sish sur'ati -0,2 foiz darajasida qayd etildi. Ushbu holat energiya resurslari narxlarining yuqoriligi, shuningdek, ishlab chiqarish, qurilish va xizmatlar sohasidagi vaqtinchalik pasayishlar bilan izohlanadi. Shu bilan birga, Germaniya iqtisodiyoti yuqori texnologiyalar, sanoat innovatsiyalari va eksport salohiyatiga tayangan holda o'rta muddatda barqaror tiklanish imkoniyatiga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

1-jadval. Dunyo davlatlarining iqtisodiy o'sish hajmi (2024)¹

Davlatlar	Iqtisodiy o'sish hajmi	Iqtisodiy o'sish sur'ati
AQSH	\$29,184 trillion	+2.8%
Xitoy	\$18.7 trillion	+5%
Hindiston	\$3.91 trillion	+6.5%
Germaniya	\$4.6 trillion	-0.2%
O'zbekiston	\$121.4 milliard	+6.5%
Rossiya	\$2.4 trillion	+4.1%
Yaponiya	\$4.2 trillion	2%
Fransiya	\$3.16 trillion	1.1%

Butun dunyoda 2024-yilda yaratilgan yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi taxminan 111 trillion AQSh dollarini tashkil etdi. Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, global YaIMning 50 foizdan ortiq qismi YaIM hajmi eng yuqori bo'lgan rivojlangan davlatlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Ushbu holat jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarish va daromadlar yuqori darajada konsentratsiyalashganini anglatadi.

Mazkur tendensiya global miqyosda iqtisodiy imkoniyatlarning notekis taqsimlanishiga olib kelmoqda. Xususan, ishlab chiqarish resurslari va investitsiya oqimlari asosan moliyaviy barqarorlik yuqori, institutsional muhit rivojlangan va investitsiyalar uchun kafolatli hisoblangan hududlarga yo'naltirilmoqda. Natijada, iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtacha yoki past bo'lgan mamlakatlar va hududlarda investitsiyalarni jalb etish jarayoni nisbatan sust kechmoqda hamda ishlab chiqarishning diversifikatsiyalashuvi sekinroq shakllanmoqda.

Shu bilan birga, mazkur holat rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tarkibiy islohotlarni jadallashtirish, investitsion muhitni yaxshilash, inson kapitalini rivojlantirish va innovatsion tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash orqali global qiymat zanjirlarida munosib o'rin egallash imkoniyatlarini izlash zaruratini yanada kuchaytiradi. Demak, iqtisodiy o'sishning hududlararo muvozanatini ta'minlash jahon iqtisodiy barqarorligi uchun muhim strategik vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

¹ Xalqaro valyuta fondi ma'lumotlari asosida muallif ishlanamsi.



		Delta-method				
		Coefficient	std. err.	z	P> z	[95% conf. interval]
c	var(c)	0.0593314	0.0222056	2.67	0.008	0.0158093 0.1028535
	cov(c,i)	0.2449662	0.0742666	3.30	0.001	0.0994064 0.390526
	cov(c,r)	0.0053871	0.0032399	1.66	0.096	-0.0009631 0.0117372
	cov(c,w)	0.0811468	0.0282614	2.87	0.004	0.0257555 0.1365381
	cov(c,h)	0.0218154	0.0061564	3.54	0.000	0.0097492 0.0338817
	cov(c,y)	0.1029622	0.0343529	3.00	0.003	0.0356317 0.1702928
i	cov(i)	16.22813	3.155044	5.14	0.000	10.04436 22.4119
	cov(i,r)	4.034471	0.7819532	5.16	0.000	2.501871 5.567071
	cov(i,w)	2.123275	0.4244298	5.00	0.000	1.291408 2.955142
	cov(i,h)	1.878309	0.363923	5.16	0.000	1.165033 2.591585
	cov(i,y)	4.001584	0.7871757	5.08	0.000	2.458748 5.54442
r	var(r)	1.058403	0.2081599	5.08	0.000	0.6504176 1.466389
	cov(r,w)	0.4788769	0.092211	5.19	0.000	0.2981468 0.6596071
	cov(r,h)	0.4734899	0.0918579	5.15	0.000	0.2934516 0.6535281
	cov(r,y)	0.9523668	0.1840407	5.17	0.000	0.5916537 1.31308
w	var(w)	0.3211336	0.0711841	4.51	0.000	0.1816153 0.4606519
	cov(w,h)	0.2399868	0.0473097	5.07	0.000	0.1472616 0.3327121
	cov(w,y)	0.5611204	0.1175247	4.77	0.000	0.3307762 0.7914647
h	var(h)	0.2181714	0.0421785	5.17	0.000	0.135503 0.3008398
	cov(h,y)	0.4581582	0.0894235	5.12	0.000	0.2828913 0.6334251
y	var(y)	1.019279	0.2060027	4.95	0.000	0.6155207 1.423037

*** $p < 0.01$, ** $p < 0.05$, * $p < 0.1$

1-rasm. DSGE modeli asosida hisoblangan omillar orasidagi kovariatsiya hisob-kitoblari²

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy o'sish sur'ati 2024-yilda 6,5 foizni tashkil etdi. Mazkur o'sishga eng katta hissa qo'shgan tarmoqlar qatoriga sanoat (1,7 foiz), xizmatlar sohasi (1,3 foiz), tashish, saqlash, axborot va aloqa tarmog'i (0,9 foiz), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (0,6 foiz), qurilish (0,6 foiz) hamda mahsulotlarga sof soliqlar (0,3 foiz) kiradi. Boshqa tarmoqlar esa yalpi ichki mahsulot (YalM) o'sishining 1,1 foizlik qismiga hissa qo'shdi. Ushbu ko'rsatkichlar mamlakat iqtisodiy o'sishi nafaqat yirik tarmoqlar, balki boshqa sohalarning ham faol rivojlanishi bilan ta'minlanayotganini ko'rsatadi.

Shu sababli, YalMga turli omillarning birgalikdagi ta'sirini yanada chuqurroq baholash maqsadida o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi kovariatsiya (covariance) matritsasini hisoblash maqsadga muvofiq deb topildi. Bizning hisob-kitoblarimiz natijalariga ko'ra, umumiy muvozanatni ifodalovchi ushbu kovariatsiya matritsasida barcha omillar o'zaro musbat (to'g'ri) bog'liqlikka ega.

Xususan, iste'mol xarajatlarining bir birlikka oshishi YalM hajmining 0,12 foizga ortishiga, asosiy stavkaning bir birlikka oshishi YalMning 0,95 foizga ko'payishiga, ish haqlarining oshishi 0,56 foizlik o'sishga, ish soatlarining bir birlikka ko'payishi esa YalM hajmining 0,45 foizga oshishiga olib kelmoqda. Bu natijalar ichki talab va mehnat omillarining iqtisodiy o'sishdagi muhim rolini tasdiqlaydi.

Shuningdek, iste'mol hajmining bir birlikka oshishi korporativ obligatsiyalar hajmining 0,24 birlikka, asosiy stavkaning 0,005 birlikka va ish haqlarining 0,08 birlikka oshishiga turtki bo'layotgani aniqlangan. Modeldagi asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lgan asosiy (qayta moliyalash) stavkaning bir birlikka oshishi esa O'zbekiston Respublikasida ish haqlarining qariyb 0,5 birlikka va ish soatlarining ham shunga yaqin miqdorda ko'payishiga olib kelmoqda.

Ushbu kovariatsiya matritsasi asosida xulosa qiladigan bo'lsak, tahlil uchun tanlab olingan davr mobaynida YalM (Y) bilan bog'liq barcha asosiy o'zgaruvchilar o'rtasida ijobiy va barqaror bog'liqlik mavjud bo'lib, ularning har biri iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu holat O'zbekiston iqtisodiyotida ichki talab, mehnat bozori va monetar omillar uyg'unlashgan holda iqtisodiy o'sishni ta'minlayotganini ko'rsatadi.

2 Stata 18 dasturi yordamida muallif hisob-kitoblari.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan nazariy va empirik tahlillar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sish zamonaviy sharoitda ko'p omilli va murakkab jarayon bo'lib, u real sektor tarmoqlari, ichki talab, mehnat bozori hamda monetar omillarning o'zaro uyg'un ta'siri natijasida shakllanadi. 2024-yilda O'zbekiston Respublikasida qayd etilgan 6,5 foizlik iqtisodiy o'sish sanoat, xizmatlar, transport-logistika, qishloq xo'jaligi va qurilish tarmoqlarining muvozanatli rivojlanishi hisobiga ta'minlanganini ko'rsatdi.

Kovariatsiya matritsasi asosida o'tkazilgan tahlillar YaIM bilan iste'mol xarajatlari, ish haqi, ish vaqti hamda asosiy stavka o'rtasida barqaror va ijobiy bog'liqlik mavjudligini tasdiqladi. Bu holat ichki talabni rag'batlantirish, mehnat daromadlarini oshirish va samarali monetar siyosat yuritish iqtisodiy o'sishni jadallashtiruvchi muhim mexanizmlar ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, asosiy stavkaning oshishi ish haqi va bandlik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani monetar siyosatning real sektor bilan uzviy bog'liqligini ifodalaydi.

Tahlil natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Iqtisodiy o'sishning tarkibiy sifatini oshirish maqsadida sanoat va xizmatlar sohalarida yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini kengaytirish, ishlab chiqarishning texnologik yangilanishini jadallashtirish zarur. Bu uzoq muddatli barqaror o'sish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

2. Ichki talabni rag'batlantirish siyosatini kuchaytirish, xususan, aholi daromadlari va ish haqlarining real o'sishini ta'minlash orqali iste'mol xarajatlarini kengaytirish YaIM o'sishiga ijobiy multiplikativ ta'sir ko'rsatadi.

3. Monetar siyosat va real sektor o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, asosiy stavkani belgilashda bandlik, ish haqi va ishlab chiqarish faolligi ko'rsatkichlarini hisobga olish iqtisodiy o'sishning barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

4. Transport, logistika, axborot va aloqa sohalarini rivojlantirish orqali iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida samaradorlikni oshirish, hududlararo iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

5. Iqtisodiy-matematik modellarni makroiqtisodiy rejalashtirish jarayonlariga joriy etish, xususan, kovariatsiya, regressiya va ssenariy modellaridan foydalanish iqtisodiy siyosat qarorlarining ilmiy asoslanganligini oshiradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy o'sish ichki talab, mehnat bozori va monetar omillarning o'zaro uyg'unligi asosida shakllanayotganini ko'rsatib, ushbu omillarni kompleks tarzda boshqarish iqtisodiy rivojlanishning muhim sharti ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Valdivia D. (2015). Handbook on DSGE models: Some useful tips in modeling DSGE models (MPRA Paper No. 61654, pp. 5-7). Munich Personal RePEc Archive. <https://mpra.ub.uni-muenchen.de/61654/>
2. D'Amico J. (n.d.). How to solve DSGE models [Video lecture series]. YouTube.
3. Hnatkovska V. (2015). Dynamic stochastic general equilibrium models (Lecture 2). Delhi.
4. Mahmudov N.M. & Hakimov H.A. (2017). Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash – barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim sharti. Iqtisodiyot va ta'lim, (2), 7-11.
5. Costa Junior C.J. & Garcia-Cindato A.C. (2018). Teaching DSGE models to undergraduates. *Economia*, 19(3), 424-444. <https://doi.org/10.1016/j.econ.2018.03.004>
6. StataCorp. (2017). Stata linearized dynamic stochastic general equilibrium reference manual (Release 15). Stata Press.
7. Tonogi A. (n.d.). Economic growth analysis of Japan using a dynamic general equilibrium model with R&D investment.
8. World Bank. (n.d.). <https://www.worldbank.org>
9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (n.d.). <https://www.cbu.uz>
10. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (n.d.). <https://www.imv.uz>
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (n.d.). <https://www.stat.uz>
12. International Monetary Fund. (n.d.). <https://www.imf.org>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
